


Xayrli va bardavom an'ana



Xalqimizda azaldan ilm ahli e'zozlangan. Ularga ko'mak berish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hozirgi kunda ham e'tibor markazida.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev tashabbusi bilan institut Talabalar turar joyida yashaydigan 700 nafardan ortiq o'g'il-qizlarga tuxum tarqatish an'ana tusiga kirgan.





Bugun o'sha an'anaga sodiq qolgan holda talabalar dasturxoniga tuxumlar tortiq qilindi. Talabalar bu kabi doimiy e'tibordan ruhlanib ilm va ijod yo'lida samarali mehnat qilishga bel bog'lashmoqda.





Institut rahbariyati talabalarni ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirish masalasiga kechiktirib bo'lmaydigan, dolzarb masala sifatida qaraydi. Bu yo'lda har qanday ko'makka hozirdir!

